

EXPRESSION OF SPEECH SUBJECT IN ALISHER NAVOI GHAZALS

Mardon Mekhmonovich RAKHMATOV

Doctor of philological Sciences, Associate Professor
Alfraganus University
Tashkent, Uzbekistan

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA NUTQ SUBEKTINING IFODALANISHI

Mardon Mexmonovich RAXMATOV

Filologiya fanlari doktori, dotsent
Alfraganus universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ВЫРАЖЕНИЕ СУБЪЕКТА РЕЧИ В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Мардон Мехмонович РАХМАТОВ

Доктор филологических наук, доцент
Университет Альфрангуса
Ташкент, Узбекистан mardonrahmat@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Raxmatov M.M. Alisher Navoiy g'azallarida nutq subektining ifodalanishi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 261–270.

<https://doi.org/10.36078/1746691027>

Received: March 11, 2025


Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Speech linguistics is a science that studies the relations of participants in a speech act: addressee (speech producer) – speech – addressee (reader or listener). But there is another subject, arising from the content of speech, whose participation makes any speech effective and effective. It is this subject of speech, transferred into speech, that is understood from the meaning of the internal structural elements of speech. The producer of speech and the subject of speech are the central category of any speech (oral and written) and determine the nature of speech; their interaction reveals various stylistic manifestations of speech, speech derivatives. Therefore, the joint study of the relations between the producer (owner) of speech and the subject of speech in speech linguistics requires the study of their linguistic features. In speech linguistics, it is considered important how and how a speech producer expresses his thoughts and feelings in real situations. In this sense, it becomes relevant to study the linguistic features of the subject of speech using the example of the works of classical creators. This article examines the issue of the speech expression of the central categories using the example of Alisher Navoi's gazelles, which are part of the "Garoyib-us Cigar" divan. In the analysis, attention was paid to how the subject of speech is organized with the help of which linguistic features, and issues related to the subject of speech and the subject of utterance were studied. In lyrical works, the utterance of the producer of speech and the lyrical subject in the lyrical "I" is revealed, sometimes the producer of speech in expressing his lyrical feelings refers to the pronouns of the second person "you", sometimes the third person "he", their subject content (the producer of speech and the subject of the utterance).

Keywords: subject of speech; owner of speech; masculine pronoun; inner subject; sentence; grammatical person.

Annotatsiya. Nutq lingvistikasi nutq akti ishtirokchilari: adresant (nutq egasi) – nutq – adresat (o'quvchi – tinglovchi) munosabatlarini o'rganuvchi fan sanaladi. Ammo nutqning ichki mazmunidan anglashiluvchi yana bir subyekt ham borki, uning ishtiroki har qanday nutqni samarali va natijali qiladi. Bu nutqqa ko'chgan, nutqning ichki struktura elementlari ma'nosidan anglashiladigan nutq subyektidir. Nutq egasi va nutq subyekti har qanday nutq (og'zaki va yozma nutq)ning markaziy kategoriyasi sanaladi va nutqning xarakterini belgilaydi; ularning o'zaro hamkorligi nutqning turli uslubiy ko'rinishlari, nutq hosilalarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun nutq lingvistikasida nutq yaratuvchisi (egasi) va nutq subyekti munosabatlarini birga o'rganish, ularning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilishni talab qiladi. Nutq lingvistikasida nutq egasi o'zining fikrlari va his-tuyg'ularini real vaziyatlarda qanday va qay tarzda ifodalashi muhim sanaladi. Shu ma'noda, nutq subyekti lingvistik xususiyatlarini ijodkorlar asarlari misolida o'rganish dolzablik kasb etadi. Mazkur maqolada markaziy kategoriyalarining nutqda ifodalanishi masalasi Alisher Navoiyning "G'aroyib-us sig'ar" devoniga kiruvchi g'azallar misolida o'rganildi. Tahlillarda nutq subyekti qaysi til belgilari yordamida qanday tashkil etilishiga e'tibor qaratildi, nutq subyekti va jumla subyekti bilan bog'liq masalalar o'rganildi. Lirik asarlarda nutq egasi va lirik subyektning lirik "men"da ifodalanishi, ba'zan nutq egasi o'zining lirik his-tuyg'ulari bayonida II shaxs "sen", ba'zan III shaxs "u" olmoshlariga murojaat qilishi, ularning субъект mazmuni (нүтк эгаси ва жумла субъекти) ochib berildi.

Kalit so'zlar: nutq subekti; nutq egasi; ichki subekt; jumla; kishilik olmoshi; grammatik shaxs; grammatik shakl.

Аннотация. Речевая лингвистика — это наука, изучающая отношения участников речевого акта: адресант (производитель речи) — речь — адресат (читатель или слушатель). Но есть и другой субъект, вытекающий из содержания речи, участие которого делает любую речь действенной и результативной. Именно этот субъект речи, перенесенный в речь, понимается из значения внутренних структурных элементов речи. Производитель речи и субъект речи являются центральной категорией любой речи (устной и письменной) и определяют характер речи; их взаимодействие выявляет различные стилистические проявления речи, речевые производные. Поэтому совместное изучение отношений производителя (владельца) речи и субъекта речи в речевой лингвистике требует исследования их языковых особенностей. В речевой лингвистике важным считается то, как и каким образом речевой производитель выражает свои мысли и чувства в реальных ситуациях. В этом смысле становится актуальным изучение языковых особенностей субъекта речи на примере произведений классиков. В данной статье рассматривается вопрос о речевом выражении центральных категорий на примере газелей Алишера Навои, входящих в диван "Гараиб ус-сигар" (Чудеса детства). В анализе уделялось внимание тому, как с помощью каких языковых признаков организуется предмет речи, изучались вопросы, связанные с субъектом речи и субъектом высказывания. В лирических произведениях раскрывается высказывание производителя речи и лирического субъекта в лирическом «я», иногда производитель речи при выражении своих лирических чувств обращается к местоимениям второго

лица «ты», иногда третьего лица «он», их предметному содержанию (производитель речи и субъект высказывания).

Ключевые слова: субъект речи; производитель речи; личное местоимение; внутренний субъект; высказывание; грамматическое лицо; грамматическая форма.

Kirish

Ma'lumki, antropotsentrik tadqiqotlarda nutq akti *adresant* (*nutq egasi yoki yaratuvchisi*) — *nutq* — *adresat* (*retsipiyent*) kategoriyalarining birligidan iborat ekanligi e'tirof qilinadi. Ulardan adresant asosiy kategoriya bo'lib, nutq egasi (yaratuvchisi) sanaladi. U qanday nutq yaratmasin, uning tarkibida, albatta, o'zining ishtirokini u yoki bu darajada ta'minlaydi. U ba'zan o'zini ochiq ifodalasa, ba'zan ishtirokini sezdirmaydi, ba'zan matnda faollasha (yoki o'zini ta'kidlasa), ba'zan matn ortiga o'tadi. Bu xususiyat she'riy asarlarda ham kuzatiladi. Shu bois ushbu maqolada o'zbek lirik asarlarida shoir va nutq subyekti munosabati masalalarini Alisher Navoiy g'azallari misolida o'ganish maqsad qilindi. Buni yoritish uchun, birinchi navbatda, she'riy asarning ichki struktura elementlariga (she'riy matnning ifoda shakllariga) e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Subyekt aslida mantiqiy kategoriya bo'lib, filologik tadqiqotlarda ham qo'llaniladi. Yuqorida tilga olinganidek, subyekt atamasi antropotsentrik tadqiqotlarda qo'llaniladi va nutq yaratuvchisi, ya'ni nutq egasi nazarda tutiladi. Shuningdek, uning filologik tadqiqotlarda mohiyatan bir-biriga mos keladigan turli terminlar bilan qo'llanganligi kuzatiladi: so'zlovchi, muallif, adresant, lisoniy shaxs [Lutfullayeva & Xudoyberganova 2017: 9-40; Raxmatov 2023: 150; Rustamov 1979: 125], lirik qahramon, lirik subyekt, shoir obrazi va b.

Nutq subyekti (adresant) — o'z oldiga har qanday nutqni adresat tomonidan muvaffaqiyatli anglanishini maqsad qilib qo'yuvchi ijodkor, muallifdir. Adresat (kitobxon) esa matn orqali axborot olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yuvchi o'quvchidir. Adresat matnni o'qir ekan, asardan muallifni emas, balki qandaydir bir boshqa shaxsni kashf etadi, uning ishtirokini, kechinmalarini his qiladi: uni o'ziga sherik qilib oladi, u orqali asarda bayon qilinganlarni tuyadi. Bu she'riy asarlardagi lirik qahramondir. Lirik qahramon she'riy asarning ichki elementlari mazmunidan sizib chiqadi va o'quvchining qalbidan mustahkam o'rin oladi. “Nutq va uning egasi (muallif, ma'ruzachi) orasida, albatta, vositachi — nutq subyekti bor. Nutq yaratishdan maqsad axborotni boshqa shaxs(lar)ga yetkazishdir. Biroq nutq aktini amalga oshirish uchun nutq egasidan nutqning o'ziga o'tish, ya'ni uni (nutq egasini) chetlashtirish lozim bo'ladi. Shunda bu vazifani — nutqning mustaqil ravishda harakatlana olish vazifasini — nutq subyekti bajara boshlaydi” [Davlatov 2021: 57-66].

Nutq subyekti ko'p hollarda lirik subyekt, lirik qahramon, shoir “men”i kabi atamalarining mazmun-mohiyatiga mos tushadi, ba'zan ularni bir-biridan farqlanishiga xizmat qiladi. Lirik subyekt — lirik qahramon, shoir “men”ining har qanday turdagi ko'rinishi, muallif (shoir)ning asarda ishtirok etish darajasi, shoirning tashqi olam haqidagi umumlashma nigohi, lirik “men” esa she'riy asardagi hissiyotga beriluvchan, bayon

qilinayotganlarni o'z boshidan kechirayotgan badiiy obraz va ayni vaqtda nutq egasi — nutq subyektidir. U muallifning aynan o'zi bo'lishi mumkin, lekin shoir shaxsi emas. U shoirning “men”i emas, balki uning asosida yaratilgan lirik “men”dir. Lirik “men” aynan muallif shaxsi emas. Agar ular tenglashtirilsa, biografik xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, ko'p hollarda lirik “men” va lirik qahramon ma'nosini farqlash qiyin. Ularni bir-biridan ajratib turuvchi o'lchov — subyekt statusidir.

Tilshunoslar orasida nutq subyektiga nutq aktining alohida bir qismi sifatida qarovchilar ham bor. Rus tilshunosi Solganing nutq egasi va nutq subyektiga nutq lingvistikasining markaziy kategoriyalari sifatida qaraydi: *nutq egasi — nutq subyekti — nutq — retsipient*. Uning izohlashicha, mazkur kategoriyalar yaxlit holda nutqning amalga oshirilishi jarayoniga aniqlik kiritadi va turli tuman nutq shakllarining yuzaga kelishiga sharoit yaratadi [Солганик 2014: 57-66].

Ta'kidlanganidek, lirik matnlarda nutq subyekti vazifasini lirik subyekt (yoki lirik qahramon, lirik “men”) bajaradi. Go'yoki matnda shoirning emas, lirik qahramonning ichki dunyosi tasvirlanadi. Bu esa nutq subyektining shoir shaxsidan uzoqlashishiga va lirik subyekt sifatida namoyon bo'lishiga olib keladi. Bu, ayniqsa, lirik qahramonning I shaxsdan II shaxsga yoki III shaxsga o'tishida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni aslida nutq egasi (shoir) I shaxsda so'zlashda davom etadi, lekin tashabbus ba'zan II shaxsga yoki III shaxsga o'tadi. II shaxs “sen”, III shaxs “u” nutq egasi bilan o'rin almashadi: “men” nomidan “sen” yoki “u” nutq so'zlaydi. Nutqning bu ifoda usuli o'tmishda ham qadrlangan va unga poetik usul sifatida qaralgan. Atoulloh Husayniyning izohlashicha, lirik qahramon (I shaxs) lutf ko'rsatadi va so'zlash navbatini “boshqalar” (II yoki III shaxs)ga beradi, ya'ni badiiy shaxsdan shaxsga ko'chish usuli (iltifot — ma'naviy san'at) sodir bo'ladi [Husayniy 1981: 82-185].

Nutq subyektiga ishora qiluvchi grammatik vositalar. Alisher Navoiy g'azallarida ichki nutq subyektiga ishora qiluvchi grammatik vositalar sifatida bir necha grammatik vositalar qo'llangan. Ularga *men* olmoshi va unga muvofiq holda fe'lning birinchi shaxs birlik shakllari qo'llaniladi.

Men olmoshi. Alisher Navoiy g'azallari bayt/misra strukturasida qo'llangan *men* kishilik olmoshi kommunikativ strukturaning markaziy elementi sanaladi va u bevosita nutq subyektini ifodalaydi:

*Men jahāndin kečtim-u, kečmäs meniñ žānīmdin el,
Men ilik žāndin jūdum, čekmäs ilik qanīmdin el* [Navoi1988: 370].

Shoir o'zining “men”ini ta'kidlaganida tasvir predmetiga nisbatan faollik oshib, uni o'z nuqtayi nazaridan baholaydi. Bunday lirik tasvirlarda lirik “men” mustaqil obrazga aylanadi, boshqacha aytganda, o'ziga o'zi subyekt bo'ladi.

Poetik “men” bevosita shoir shaxsiga ishora qila olgan hollarda lirik qahramon (lirik matnning ichki subyekti) nafaqat “o'ziga o'zi” subyekt, balki “o'ziga o'zi” obyekt ham sanaladi. Shoir o'zini “men” deb ta'kidlagan o'rinlarda ba'zan muallif va lirik qahramonni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ya'ni ular o'zaro qorishib ketadi”.

Lirik asarlarda lirik “men” ba’zan nutq egasidan ko’ra faolroq bo’lishi kuzatiladi: u shoir nomidan gapiradi va mustaqil faoliyat yuritadi. Bunday hollarda, albatta, u shoir shaxsidan uzilib, faqat lirik “men” so’zlaydi:

*Čü men bir žām üčün dehqān asiri-men, ažab ermäs
Libāsım tāk bargi, rišta bel baylarga tāk olmaq* [Navoi1988: 319].

Birinchi misradagi “*Chu men bir jom uchun dehqon asirimen*” jumlasidagi *men* olmoshi shoirning lirik “men”i bilan mos. Demak, bunda *men* olmoshi ma’nosi orqali subyekt sifatida bevosita shoir shaxsi ham anglanadi. Misrada lirik “men” lirik subyekt sifatida o’zining holatini bayon qilib, lirik tasvir shoirning ayni damdagi holatidan ko’ra lirik subyektga xos holatini yuzaga chiqishiga xizmat qilgan.

G’azallar matni tarkibidagi jumlalarda I shaxs subyekt ma’nosining qavatlanishi kuzatiladi: *men* kishilik olmoshi va *-men* predikativlik belgisi (ot kesim tarkibidagi *-men* bog’lamasi yoki fe’l kesim tarkibidagi shaxs-son shakli)ning qo’llanishi bilan bog’liq. Ba’zi hollarda *-men* bog’lamasi she’riy talabga ko’ra ko’chirilishi va she’riy jumla tarkibidagi boshqa so’zlar tarkibida qo’llanishi ham mumkin. Natijada bog’lama ko’chirilgan so’z semantik markazga aylanib uning ahamiyatlilik darajasi ortadi. Boshqacha aytganda, kommunikativ markaz yuzaga keladi. Bunday jumlalarda bog’lamali so’z — *men* kishilik olmoshi lirik subyekt ma’nosini ta’kidlash, lirik tasvirni bo’rttirish, o’quvchining butun diqqat-e’tiborini tortish kabi vazifalarni ham bajaradi. Masalan:

*Gāh sarv üzrā, gahe gül üzrā bulbul naymasāz,
Vah ki, menmen guḡ-u lāl, ul sarvi gulruxsārsiz* [Navoi1988: 204].

Mazkur baytning ikkinchi misrasi tarkibidagi “*menmen gungu lol*” jumlasida aslida odatdagi adabiy nutqqa ko’ra “*men gung-u lolmen*” nazarda tutildi.

1. I shaxs birlik. Fe’l tarkibida *-men//m* (*-im/im//üm/um*); *-äm//am*; *-män/man* va ko’plikdagi *-biz* shaxs-son shakllari ma’nosi ham nutq subyektini reallashtirishga xizmat qiladi:

*Qadah ki, dayrda istār-men ušbu közgüdin,
Biling ki, muḡbača aksi erür maḡa maqsud* [Navoi1988: 116].
*Körgāli husnünni zār-u mubtalā boldum saḡa,
Ne balālīḡ kün edi-kim, āšnā boldum saḡa* [Navoi1988: 16].
-äm/am shakli:

*Žilvada husn ahli ičrā ko’rmišām bisjār qad,
Qāmatiḡ-dek zāhir etkān körmādim raftār qad* [Navoi1988: 123].

-män/man (-mayman) shakli. Alisher Navoiy g’azallarida kelasi zamon ma’nosida qo’llanuvchi *-män/man* shakli birinchi shaxs birlik ma’nosini ifodalash uchun faol qo’llangan, uning grammatik ma’nosi ham bevosita lirik “men” – nutq subyekt bilan bog’liqdir:

*Asraj alman özni, aşkim tutti dašt-u tayni,
Nečä kim Farhād-u Mažnun dedilär, bas jïylamaq* [Navoi1988: 320].

Misollardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiyning g'azallari matnida nutq subyekt shaklining ifoda usullari ko'p va ular ko'p variantli bo'lib, ular ma'noda bir-biridan deyarli farq qilmaydi va shoirning lirik "men"i bilan mos.

Biz olmoshi. Biz olmoshining "G'aroyib-us sig'ar" devoni tarkibiga kirgan g'azallar matnida qo'llanishi chegeralangan. Biz buni lirik asarlarning janr xususiyati bilan bog'liq, deb hisoblaymiz.

G'azallar matnida qo'llangan biz olmoshining mazmuniy mundarijasi keng. Uning mazmunidan lirik qahramon "men" (nutq subyekt) bilan birga boshqalarning ishtiroki ma'nosini ham anglash mumkin: "men" va boshqalar (men+sizlar, men+ular) kabi:

*Ägär uššāqïyya bazm içrā jol bersāñ Navāij-dek,
Birār sāyar bilā ham jād qil biz benavālarni* [Navoi1988: 641].

Baytdagi "Biror sog'ar bila biz benavolarni ham yod qil" jumlasidagi biz olmoshi aslida lirik "men"dir. Misrada lirik "men", ya'ni lirik qahramon subyekt sifatida o'zining ruhiy holatini bayon qilmoqda. Ammo "biz" so'zi til va nutqda (subyektiga ko'ra) mos kelmagani uchun nutq egasi va lirik qahramon orasidagi bog'liqlik yo'qoladi (Lirik qahramon biz olmoshi bilan ifodalanganda nutq subyekt (shoir) o'rtasida ko'rinmas masofa paydo bo'ladi, ya'ni ular bir-biridan ma'lum ma'noda uzoqlashadi).

*Sāqijā, tutqil sabuhij bāda kim, bu dajrdin,
Biz ketib bu nav' tāli' bolyusī bisjār subh.*

Ta'kidlanganidek, she'riy asarlarda biz olmoshi lirik "men" — lirik subyekt sanaladi, lekin u birgina shoir shaxsidan iborat emas. Shuning uchun, aytish mumkinki, lirik subyektning "biz" shakli matnda shoir shaxsini butunlay inkor qilmasa-da, ular orasida muayyan farqlar kuzatiladi. Masalan: quyidagi misra tarkibidagi "biz ham shuncha yig'laylik" jumlasida shoir (lirik qahramon) tilidan gapiradi, lekin bunda lirik subyekt yolg'iz emas, unda o'zi bilan "boshqalar"ning ham ishtirokini, harakatni ular bilan birga amalga oshirishni istayapti:

*Čarx mātām jetkürür, biz dayi anča jïylali,
Kim, kuhan yamxānasi ul sajldin qilsun nišast* [Navoi1988: 77].

Malumki, jonli so'zlashuvda, publitsistik janrdagi asarlar tilida, shuningdek, publitsistik-tantanavor nutqlarda ko'pincha ko'plikdagi biz olmoshi birlik ma'nosida qo'llanib, uslubiy xoslanadi. Ya'ni biz olmoshi uslubiy ma'no ifodalab, kamtarinlik, ba'zan manmanlik, ba'zan ko'tarinkilik ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu kabi uslubiy ma'nolar g'azallar matnida ham kuzatiladi.

Lirik asarlarda biz olmoshi nutq subyekt ma'nosini ifodalash bilan birga uslubiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Aksariyat hollarda kamtarinlik

ma'nosini ifodalab, lirik qahramonning holatini bo'rttirishga, ta'kidlashga xizmat qiladi. Quyidagi baytda nutq subyekt *biz* olmoshi yordamida ko'proq kamtarlik, o'zini ta'kidlash vazifasini bajargan:

*Boryali ul husn ganji yam buzuy köhlümdädür,
Aždahā uji **biziñ** vajrāna boldi āqibat* [Navoi1988: 72].

Bazan uning xususiy (nutq egasi sifatida), ya'ni yakka shaxsga xos kamtarlik, yakkalik, ta'kidni ham ifodalagan:

*Ej köñül, jār özgälär domiya boldi pājbast,
Señä muşkul hālat-u **bizgü** qatīq iş berdi dast* [Navoi1988: 76].

-äy/ay; -äylik istak mayli shakllari ham lirik asarning markaziy qahramonini ifodalaydi. U o'ta hissiyotga beriluvchan, bayon qilinayotgan voqea-hodisalarni o'z boshidan kechirayotgan va uni chuqur his qilayotgan lirik subyektdir. Istak mayli shakli muallif ongi va nutq subyektini ifdalanishining eng qulay va ta'sirchan shaklidir:

*Işqīñ ičrā köksümä anča žunūn taşīn uraj,
Kim, xiradnīñ şavkatīn, taqvā şukuhīn sīnduraj* [Navoi1988: 617].

Lirik asarlarda grammatik II, III shaxslarda shakllangan jumalarda nutq subyekt va uning shakllantirilishi o'ziga xos. Bu turdagi jumalarda ham aslida nutq egasi/subyekt so'zlaydi. Biroq bu nutq II va III shaxslarda bayon qilinadi. Bunday misralarda ko'pincha lirik qahramonning ko'ngil hikoyatlari, ruhiy holati, kechinma va tuyg'ular olami, orzu va armonlari, ba'zan tabiat manzaralari va boshqa tasvirlar yetakchilik qiladi. Nutqning bu ifoda shakli lirik qahramonni nutq egasidan to'la "ajratadi" va u ustunlikka ega bo'ladi. Bunda nutq egasi II shaxsda "o'z" fikri, nuqtayi nazarini erkin bayon qilsa ham, lirik qahramon so'zlovchi, kuzatuvchi, baho beruvchi mavqeni egallaydi, shuningdek, u voqea-hodisalarni bayon qilish, ta'kidlash kabi vazifalarni ham bajaradi. Bu esa shoirning boshqa "men"ga murojaat qilishiga, u bilan muloqotga imkon beradi.

II shaxs xabar mayli. II shaxs xabar maylidagi fe'llarda lirik qahramon ko'proq qalamga olingan ishtirokchilarning xatti-harakatlari haqida so'zlaydi, ularning ruhiy holatlari, lirik kechinmalarini bayon qiladi, boshqa "men"ning harakatlariga baho beradi, ularning xatti-harakatlaridan xabar beradi yoki ularni qayd qiladi. Bu ko'proq *sen* va uning ma'nosini reallashtiruvchi har uchala zamonda II shaxsda tuslangan fe'llarda kuzatiladi:

*Nāsihā, āşiqliyiñni man qildiñ, bilmādiñ
Kim, nasihat birlā daf' olmas qazā bolyan balā* [Navoi1988: 29].

II shaxsda nutq subyekt o'ziga "chetdan" nigoh tashlaydi. Bu esa nutq subyektining o'zini "sen" deb atash imkonini ham beradi. Bunday baytlarda "men" va "sen" birlashadi, ba'zan "sen" "men"ga teng keladi. Natijada "o'ziga o'zi" murojaat shakli yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, "sen" olmoshi "badiiy asarga kiritilgan, badiiy asarlarda tasvirga

olingan barcha narsalar, obrazlar” [Sarimsoqov, 1992:10.], shu jumladan, shoirning o‘ziga — “Navoiy”ga murojaat qilishga imkon beradi:

*Ej, Navoiy, sen chekarsen ah, lekin jaxšidur
Ul pariyniy zulfi bu el birlä darham bolmasa* [Navoi1988: 27].

II shaxs buyruq-istak (amr). Alisher Navoiy g‘azallarida ham fe’lning II shaxs birlik va ko‘plikdagi shakllari buyruq ma’nosidan tashqari xohish-istak, talab, iltimos, maslahat ma’nolarini ifodalab kelgan va amalda bajarilishi kutiladigan, bajarilishi lozim bo‘lgan buyruq (xohish-istak, talab, iltimos, o‘tinch, maslahat ma’nolari bilan aralash) mazmunidagi jumladlarda qo‘llangan. Bunday misralarda shoirning “men”i grammatik “sen”da aks etadi:

*Zulfu jüzdin sunbuluyni gül üzü tarqatma köp,
Dahr bāyida gül-u sunbul isin büträtmä köp* [Navoi1988: 68].

Grammatik shakli II shaxs –g‘il/-gil/-qil/-kil shakllari bilan ifodalangan jumladlarda ham nutq subyekt va lirik subyekt orasida ma’lum masofa mavjudligi sezilib turadi, biroq nutq subyekt ayni shu masofadan turib murojaat qilaveradi:

*Qara közüüm kelü mardumluy emdi fan qilyil,
Közüm qarasida mardum kebi vatan qilyil* [Navoi1988: 371].

III shaxs. Nutqning bu shaklida ham III shaxs “u” nutq egasi bilan o‘rin almashadi, lirik qahramon “u”ning tilidan nutq so‘zlaydi. Natijada nutq egasi (o‘z subyekt — “men”i) o‘z nutqidan ma’lum darajada uzoqlashadi. Ammo ular orasidagi bog‘liqlik ekstralingvistik yo‘llar bilan yuzaga chiqadi: “u” — bu shaxs, narsa va boshqalar, ya’ni “u” nutq egasining nigohiga tushgan, tasavvuriga kelgan va bilgan shaxs va narsalardir. Bunday hollarda nutq egasi o‘z nutqida o‘zini bevosita namoyon qilmaydi, lekin nazarda tutadi, I. I. Kovtunova ta’biri bilan aytganda, lirik asarda III shaxsda tasvir qilingan har qanday shaxs, narsa yoki voqea-hodisa muallifning o‘zi haqida gapirish imkonini yaratadi. Lirik asarlarning kommunikativ tabiati shunday [Kovtunova, 2003:33].

*Meni sargašta žismün dāy ilä qan lälazār etmiş,
Qujun jāxud tökülgän lälazār içrä gulzār etmiş* [Navoi1988: 243].
*Nuqtaji xāliiñ ki közdin dāimā ma’dum erur,
Nuqtaji xāl ermäs ul kim, nuqtaji mavhum erür* [Navoi1988: 167].

Alisher Navoiy g‘azallari matnida uchinchi shaxs “ul” kishilik olmoshidan samarali foydalangan. “Ul” lisoniy birlik sifatida — jumla subyekt (‘ul’ — nutq subyekt emas), “ul” — nutq doirasidan tashqaridagi uchinchi bir subyekt, begona shaxs, ayni zamonda, shu kontekst uchun aniq, lirik qahramonning holatini yaxshi bilgan, uning lirik kechinmalari, ichki tug‘yonlaridan xabardor bo‘lgan uchinchi bir shaxs sifatida gavdalanadi.

Lirik matn formal-subyekt jihatidan bir nutq subyektigagina tegishlidir. U lirik asar muallifi. Lirik subyekt lirik matnning o'zigagina xos bo'lib, har uchala shaxsda gapira oluvchi lirik qahramon hamdir. Lirik subyekt lirik "men" bilan o'ta zich aloqada bo'ladi.

Lirik subyekt, lirik qahramon va lirik "men" — hammasi nutq subyektini atrofida birlashadi.

G'azallar matnidan kelib chiqib, nutq subyektini ikki turga ajratish mumkin:

1. Matndan tashqaridagi nutq subyektini — muallif yoki nutq egasi.

2. Matn ichidagi nutq subyektini — matnning ichki struktura elementlari orqali idrok qilinadigan lirik qahramon yoki lirik subyekt.

Lirik matnda har uchala shaxsda faol gapira oluvchi subyektning o'rni muhim sanaladi. Ular o'zaro I shaxs — lirik "men"da kesishganda muvofiq keladi.

Nutq egasi lisoniy shaxs sifatida o'zining butun imkoniyatlarini she'riy matnda ochishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Alisher Navoi. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar, 20 jildlik, 3-jild. — Toshkent, 1988. — 616 b.

Davlatov O. Ma'nolar xazinasi, 1-jild. — Toshkent, Tamaddun. 2021. — 331 b.

Iskhokov Y. Navoiy poetikasi. — Toshkent, Fan. 1983. — 168 b.

Husayniy, Ataulloh. Badoyi us-sanoyi. — Toshkent, Adabiyot va sanat. 1981. — B.182–185.

Lutfullayeva D., Xudoyberganova D. Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi. //O'zbek tili va adabiyoti. — 2017. — No. 6, — B. 39–40.

Raxmatov M. Poetik sintaksis: struktura va semantika. — Toshkent, Bookmany print. 2023. —144 b.

Rustamov A. Alisher Navoiyning badiiy mahorati. — Toshkent, Адабиёт ва санъат. 1979. — 216 b.

Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil. //O'zbek tili va adabiyoti. — 1992. — No.5, — B. 6–10.

Ковтунова И. Поэтический синтаксис. — Москва, Наука. 1986. — 61 с.

Солганик, Г. О структуре речи (категории производителя и субъекта речи). //Экология языка и коммуникативная практика. — 2014. — No.1, — С. 57–66.

References

Alisher Navoi. (1988). *Xazoyin ul-maoniy. Gharoyib us-sighar* (Khazayin ul-Maani. Gharoyib us-sighar), A treasure of meanings, Volume 3, Tashkent, 616 p.

Davlatov, O. (2021). *Ma'nolar xazinasi* (The Treasure of Meanings), A treasure of meanings, No1, Tashkent: Tamaddun, 331 p.

Husayniy, A. (1981). *Badoyi us-sanoyi* (Fine Arts), Tashkent, pp.182–185.

Iskhakov, Y. (1983,) *Navoiy poetikasi* (Poetics of Navoi), Tashkent, 168 p.

- Kovtunova, I. (1986), *Poeticheskiy sintaksis* (Poetic Syntax), Moscow, 61 p.
- Lutfullayeva, D. & Xudoyberganova, D. *Uzbek tili va adabiyoti*, 2017, No.6, 39–40 p.
- Rakhmatov, M. (2023). *Poetik sintaksis: struktura va semantika* (Poetic syntax: structure and semantics), Tashkent, Bookmany print, 144 p.
- Navoiy lirikasida she'riy nutq strukturasi va shoir taxallusi*. Innovative Development in Educational Activities, 2023, No 4, pp. 488–492 p.
- Rustamov, A. (1979). *Alisher Navoiyning badiiy mahorati* (Artistic skills of Alisher Navoi), Tashkent, 216 p.
- Sarimsoqov, B. *Uzbek tili va adabiyoti*, 1992, No 5, pp. 6–10.
- Solganik, G. (2014). O strukture rechi (kategorii proizvoditelya i sub"ekta rechi) (About the structure of speech (categories of producer and subject of speech), *Ekologiya yazyka i kommunikativnaya praktika*, No1, pp. 57–66.